




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

TOG'AY MUROD NASRIDA DIALEKTIZMNING O'RNI
(Otamdan qolgan dalalar romani misolida)

THE PLACE OF DIALECTISM IN UNCLE MURAT'S PROSE
(IN THE EXAMPLE OF THE NOVEL "THE FIELDS LEFT FROM MY FATHER")

Gulxayo ISABAYEVA,
TAFU katta o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sardor JO'RAQULOV,
TAFU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VSVE2922

Annotation. *This article studies the writer Toghay Murod's skill in using dialectisms effectively and appropriately. In addition, the literary meaning and explanations of dialect words in his works are given. The meaning of the words in the work itself is explained. Suggestions and comments are given on creating a linguistic corpus of Toghay Murod's works.*

Key words: *Dialect, imagery, dialectisms, image psychology, creative style, regional color.*

Kirish

Tog'ay Murod o'z asarlari bilan XX asr adabiyotiga yangicha nafas olib kirdi, adabiyotimizning kitobiylashgan tilini yangilab, dialektizmlar badiiy asar tilining jonliligini, jozibador va boyligini ta'minlovchi vosita ekanligini isbotladi. Filologiya fanlari doktori, professor Bohodir Sarimsoqov tabiri bilan aytganda, Tog'ay Murod o'zbek nasridagi epik bayonning o'zanlarini o'zgartirib yuborgan ijodkoridir. Yozuvchi o'zbek nasridagi an'anaviy adabiy til me'yorlarini chetlab, mahalliy tilni, turmush tarzini, qadriyatlarini, folklorini boricha tasvirlaydi. Tog'ay Murod o'zbek adabiyotida o'z so'ziga va soziga ega ijodkor. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev, adib asarlarini boshqa biror yozuvchiniki bilan adashtirish mumkin emas deb ta'riflaydi. Haqiqatdan ham Abdulla Qodiriy uslubida yozilibdi, O'tkir Hoshimov uslubida yozilibdi degan gaplarni orasida Tog'ay Murod uslubida yozilibdi degan gapni kamdan kam holda eshitamiz. Q.Yo'ldoshev e'tirof etganidek adashtirib qo'yish mumkin emas balki yozuvchining bayon uslubini uning til xususiyatlarini takrorlash ham mushkul ish deb o'ylaymiz. O'z maktabini bunyod etgan ijodkorning asarlarini eslaganda beixtiyor asardagi shevaga xos so'zlar ko'z o'ngimizdan o'tadi. Tilshunos olim Samixon Ashirboyev badiiy asarlardagi shevaga xos so'zlarning ishlatilishi haqida quyidagicha tarif beradi: "Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkon yaratadi" [Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi 2013]. Tog'ay Murod ham ana shu imkoniyatdan foydalangan holda, jonli xalq tilining tarovatini va taronasini o'z asarlariga shunday mahorat bilan kiritganki, aynan shu sheva tanish bo'lgan o'qirmanlar bevosita obrazlar bilan Tog'ay Murod bilan, Surxon vohasining dehqoni-yu polvoni bilan muloqat qiladi. Shevadan bexabar o'qirmanda esa bu holatning teskarisi ro'y berib, so'zlarning notanishligidan hafsalasi pir bo'ladi. Olim N.Mahmudov "Badiiy uslubda qo'llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga hizmat qiladi. Shuningdek, shevadagi so'z va adabiy tildagi so'z ifodalagan tushunchalardan ayrim nozik farqlar mavjud bo'lganda ham yozuvchi shevadagi so'zlarni afzal ko'radi" [Mahmudov N. 10-sinf uchun ona tili darsligi. - T: "O'zbekiston ensklopediyasi" 2017: 32], - deb yozadi. Darhaqiqat, Tog'ay Murod ham mahalliy koloritni chizishda aynan sheva murojaat qilgan. Biz quyida "Otamdan qolgan dalalar" [Toray

Мурод. Отамдан қолган далалар. Роман. 2022] romanidagi ayrim shevaga xos soʻzlarning adabiy tildagi maʼnosini soʻz turkumlariga ajratgan holda tadqiq etdik.

Manbalar tahlili: Feʼl soʻz turkumidagi dialektizmlar:

Elavsiramoq - Uyqusiramoq, dovdiramoq. *Nima balo, elorayapsanmi? Yot uhla* [Otamdan qolgan dalalar romani 47-bet]

Iyarmoq- Ergashmoq. *Men endi onamiz ketidan iyaraman.* [Ushbu asar 46-bet]

Mengzamadi-oʻxshamoq, oʻxshatmoq. *Ovoz deyin dedim ovozga mengzamadi.* [107-bet]

Pongsib - Oʻzagi qurib, boʻsh boʻlib qolmoq. *Gʻoʻzalarim dimda pongsib-pongsib qoldi.* [204-bet]

Sur - Jildirmoq, siljitmoq. *Men betimni qalini-jonimni huzuri deya sur boʻlib-sur boʻlib tura berdim.* [213-bet] Bu yerda sur soʻzi qimirlab-qimirlab turish maʼnosida qoʻllanilgan.

Bovujud - Shunga qaramasdan, shunday boʻlsa ham. *Bovujud koʻchadan oʻtkinchi-ketkinchilar chopip keldi.* [229-bet]

Toʻrkadi- Uygʻonmoq. *Tong toʻrkadi.* [253-bet]

Bodrab-Duvullab, toshib chiqmoq. *Xom koʻsak bodrab-bodrab ochila berdi.* [253-bet]

Qunushib - Sovuqdan yoki qoʻrquvdan boʻynini ichiga tortmoq, junjimoq. *Men qunishib-qunishib koʻsak teraman.* [286-bet]

Hadaha - Tezlik bilan, tezda, darrov. *Hadaha bilan boshqa bir moshina soldi.* [291-bet]

Himo - Qoʻllab-quvvatlash, yordam. *Askarlar himo berib-himo berib oʻtirgʻizdi* [302-bet]

Sifat soʻz turkumidagi dialektizmlar:

Nimkala - Ojiz, zaif, kuchsiz. *Momomiz soz nimkala soz nimkala oyoq oladi.* [25-bet]

Angib - Hushyor boʻlib turmoq. *Jigitlarimga daryo yoqasida angib yotinglar, deb tayinlab edim.* [59-bet] Angib soʻzi hozirda Oltinsoy shevasida deyarli ishlatililmaydi.

Jeva qoshiq – jeva (qurol aslaha) - Bu yerda aynan ovqatlanish uchun kerak boʻladigan “qurol” nazarda tutilgan. *Jiva qoshigʻimni yoʻqotib qoʻydim.* [79-bet]

Palaxsa - Yer haydaganda yoki chopganda uvalanmay, butun holda koʻchgan katta yapaloq kesak. *Men temirtish bilan dalalarimni palaxsalab-palaxsalab haydadim.* [103-bet]

Yagʻir - Ot, eshak, tuya singari hayvonlar ustida terining ogʻir yukdan ezilishi tufayli yuz beradigan yiringli yara, jarohat. *Oqibat saraton telpagim yagʻir-yagʻir boʻlib qoldi.* [133-bet] Ayni oʻrinda oʻyilib qolish maʼnosida.

Chayir - Tolalarning mahkam birkkan, yorilishi, ishlanishi qiyin joyi. *Ammo...Chayir chang toʻkilmaydi.* [282-bet] Ayni oʻrinda baquvvat, pishiq puxta manosida.

Ot soʻz turkumidagi dialektizmlar:

Tutantiriq – Oʻt oldirib olish uchun xizmat qiladigan mayda tarasha, payraha va shu kabilar, tutatqi. *El tutantiriqni oyoq ostiga tashlaydi.* [24-bet]

Gʻajir-gʻojir – Oʻlimtiklar bilan ovqatlanadigan burgut kabi katta yirtqich qush. *Qizillar oʻligini gʻojirlarga yem qilaman.* [51-bet]

Oʻrol – Gap yoki nutqning boshi, boshlanishi, muqaddima. *Gapning oʻroli keldi aytayin...*[51-bet] Ayni oʻrinda gapning indallosi maʼnosida qoʻllangan.

Ulim – Oʻgʻlim. – *Ulimning joyi qayerda? Deydi.* [98-bet]. Ulim shakli ham Oltinsoy, Termiz tumani va Termiz shahardagi variant.

Noʻxta – Ot-ulovni bogʻlash yetaklash uchun boshiga solinadigan abzal. *Men bir amallab eshak noʻxtasini yetaklab olaman.* [102-bet]

Mola – Haydalgan yerning kesaklarini maydalab tekislash va zichlash uchun ishlatiladigan qishloq xoʻjalik asbobi. *Mola yer namini ost qabatidan ust qabatiga koʻtarib beradi.* [108-bet]

Juvildiz – Qop tikish uchun ishlatiladigan yoʻgʻon egik igna (Bigiz). *Men tirnoqlarim orasini juvoldiz tiqib kovladim.* [138-bet]

Bo'g'joma – Kiyim-kechak, gazlamalar, eski-tuskilar tugib qo'yilgan katta mato. *Avtomatchilar avtomat qo'ndog'i bilan sandiq usti bo'g'jomalarni ag'darib-ag'darib tashladi.* [289-bet]

Vaqt o'tishi bilan lahjalardagi o'zgarishlar tufayli adabiy tilda uchramaydigan so'zlarning katta qismi shevalarda qo'llaniladi. Xususan, Tog'ay Murod asarlaridagi shevaga xos adabiy tilda esa uchramaydigan so'zlarning aksariyati xalq dostonlarida uchraydi. Misol uchun: **Mengzamadi, nimkala, chayir, yag'ir** kabi so'zlar. Tog'ay Murod asarlar to'liq shevaga qurilgan degan qarashdan ham yiroqmiz. Yozuvchi **ena, hamsoya, bova, ulim, korson, bolish** kabi xalqning jonli tilidan foydalanib uning ruhiyatini ochishga yordam beradi. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi obrazlar "shahar ko'rmagan" kishilar edi. Uning ruhiyatini turmish tarzini, xarakterini ochish uchun ham yozuvchi ularning jonli muloqatda bo'lgan so'zlaridan foydalanadi. Taassufki bu so'zlarning aksariyatini hozirda shevada ham uchratish qiyin. "Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy va yagona vosita so'zdir. Lekin, adabiyotdagi so'z oddiy so'z emas balki insondagi muayyan his-tuyg'uni, holat va harakatni, o'y kechinmalarni o'zgalar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajadagi so'zdir." [Belinskiy B.F 1997:158] Tog'ay Murod asarlaridagi ana shu ta'sir kuchi ya'ni so'zning kuchini anglamoq uchun ham, avvalo, u so'zning ma'nosini anglash lozim. Tog'ay Murodning o'quvchilari faqat Surxondaryodan emas. Ijodkor muhlislari yurtimizning istalgan hududidan topiladi. Ularga tushunarli bo'lishi uchun ham yozuvchining asarlarining til korpusi yaratilishi kerak. Tog'ay Murod asarlarida milliylik bor, o'zlik bor qadriyatlar bor, o'zbek xalqining xarakteri bor bularni anglash hamma uchun qiziq, albatta. Tog'ay Muroddek ijodiy fenomenni anglash uchun ham avvalo, uning ijodini to'la qonli tushunmoq kerak. Yozuvchi asarlarining chet tillariga tarjima qilinmayotgani ham balki so'zlarining umuman asar qurilishidagi murakkablikdir fikrimizcha. O'zbek xalqining milliy bayramlari, tomoshalari tadbir-u, urf-odatlari jahon hamjamiyatida ham o'z o'rniga ega qadriyatlar hisoblanadi. Tog'ay Murodda esa bular boricha tasvirlanadi. Ijodkor asarlarning til korpusi yaratilsa, tarjima uchun yengillik yaratadi deb o'ylaymiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Tog'ay Murod asarlarining qiymati balandligi, undagi obrazlarining ko'ngilga yaqinligi ham asarning xalq tilida yozilganidir. Shevaga xos so'zlar orqali hudud so'zlashuv nutqidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatib beruvchi milliy koloritni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.
2. Belinskiy B.F. Adabiy orzular. – T. 1997. B. 158
3. Mahmudov N. 10-sinf uchun ona tili darsligi. – T: O'zbekiston ensklopediyasi. 2017.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston nashriyoti, – Toshkent, 2021.
5. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Т.: Zukko kitobxon. 2022. – 252 б.
6. <https://telegra.ph/TO%D2%92AJ-MUROD-BADIYATI-05-29>